


NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- mart holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 21 423 tani tashkil etadi, shundan 18 840 tasi yoki 87,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 113,7 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2026	21 423	18 940	18 840
2025	19 077	16 676	16 576
2024	21 371	19 109	19 011
2023	23 507	21 304	21 199
2022	22 896	20 732	20 641

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Navoiy shahrida– 25,2 foiz, Karmana – 16,3 foiz, Qiziltepa – 13,2 foiz, Xatirchi – 10,1 foiz va Navbahor 9,3 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi G'ozg'on shahrida – 92,3 foiz va 92,1 foiz, Zarafshon shahrida – 90,1 foiz va 89,7 foiz, Karmana – 91,6 va 91,3 foiz, Qiziltepa – 90,3 foiz va 90,2 foiz hamda Navbahor – 89,7 va 89,5 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Navoiy shahar	5 390	4 758	4 717
Zarafshon shahar	1 433	1 291	1 285
G'ozg'on shahar	470	434	433
Konimex tumani	1 012	867	857
Qiziltepa tumani	2 823	2 549	2 545
Navbahor tumani	1 992	1 787	1 782
Karmana tumani	3 501	3 208	3 195
Nurota tumani	1 447	1 238	1 231
Tomdi tumani	483	390	385
Uchquduq tumani	714	586	581
Xatirchi tumani	2 158	1 832	1 829

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- mart holatiga 36,2 foizni (40,9 foiz va 41,1 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,9% (14,5% va 14,4%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 10,9% (12,2% va 12,2%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 331	2 305	2 297
Sanoat	2 757	2 747	2 716
Qurilish	1 290	1 277	1 270
Savdo	7 753	7 752	7 740
Tashish va saqlash	760	758	753
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 460	1 456	1 453
Axborot va aloqa	311	300	299
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	528	319	317
Boshqa turlar	4 233	2 026	1 995

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, 18 940 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 12 683 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	12 683	67,0
Xususiy korxonalar	3 366	17,8
Oilaviy korxonalar	2 814	14,9
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	62	0,2

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 313 ta korxonalardan 111 tasi qo'shma korxonalar va 202 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yilning 1-mart holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 46 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 148 tadan 179 taga, (o'sish 31 taga), qurilish sohasida 15 tadan 25 taga (o'sish 10 taga), savdo sohasida 36 tadan 42 taga (o'sish 6 taga) hamda axborot va aloqa sohasida 14 tadan 15 taga (o'sish 1 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	313	111	202
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18	7	11
Sanoat	179	79	100
Qurilish	25	3	22
Savdo	42	8	34
Tashish va saqlash	8	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	1	1
Axborot va aloqa	15	3	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	1	2
Boshqa turlar	21	5	16

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 128 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 40,9 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (12,8%), Turkiya (9,6%), Qozog'iston (4,5%), Eron (4,2%) va Janubiy Koreya (2,6%) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	313	111	202
Xitoy	128	33	95
Rossiya	40	12	28
Turkiya	30	9	21
Qozog'iston	14	5	9
Eron	13	8	5
Janubiy Koreya	8	6	2
Tojikiston	8	3	5
Hindiston	9	6	3
AQSH	7	5	2
BAA	5	2	3
Turkmaniston	5	-	5
Belorusiya	4	2	2
Germaniya	2	-	2

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Xatamova
79 223-62-47

Maznil:
210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
